

YANGI O‘ZBEKISTON



Xalqaro anjuman

Inter-Parliamentary Union
For democracy. For everyone.

TOSHKENT – GLOBAL MULOQOT MAYDONI

Poytaxtimizda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi davom etmoqda. Tadbirning ikkinchi kunida dunyoda demokratiya va inson huquqlarini muhofazalash, tinchlik, xavfsizlikni asrash, gender tenglikni ta'minlash, barqaror rivojlanishga erishish, xalqaro gumanitar huquq tamoyillariga to'la rioya etilishi kabi dolzarb masalalar yuzasidan fikrlashildi.



Anjuman doirasida global ahamiyatga ega dolzarb vazifalar yuzasidan O'zbekiston tajribasi bo'yicha tadbirlar ham tashkil etildi. Unda aholi salomatligini asrash, sog'liqni saqlash tizimini isloh etish, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi ishlar, erishilayotgan natijalar xususida ma'lumot berildi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida bu boradagi islohotlarni

izchil davom ettirish bo'yicha belgilangan maqsad va rejalar, ularni ro'yobga chiqarishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasi taqdim etildi.

Tadbir ishtirokchilaridan ayrimlarining fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.

Davomi 2-betda

KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – UMUMMILLIY BURCH

Mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadrini ulug'lash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, farovonligini oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Islohotlarning natijadorligi esa jamiyatda qonuniylarning to'la ta'minlanishi, korruptsiyadan xoli muhit yaratilishiga bevosita bog'liq. Zero, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov bu — korruptsiya.

Korruptsiya kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan, faqat bir mamlakatga xos qusur emas. Bu illat barcha davlat va jamiyatlar hayotiga daxl qiladigan global hodisaga aylangan. Binobarin,

korruptsiyaning oldini olish va unga butkul barham berish barcha davlatlarning birinchi darajadagi vazifasidir.

Taraqqiyotimizning yangi bosqichida korruptsiyaga qarshi kurashishga jiddiy kirishildi. Hatto korruptsiyaga qarshi kurashishga doir qonun ham bo'lmagan bir sharoitda Prezidentimiz butun jamiyatni bu illatga qarshi kurashga safarbar qildi.

Davomi 3-betda

“TIQXMMI” milliy tadqiqot universitetining 90 yilligiga

TO‘QSONINCHI DOVON VA YANGILANGAN SHONLI YO‘L MAS‘ULIYATI

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan qutlug' diyorumiz azaldan ulug' allomalar yurti, ilm darg'alari vatani, dunyoga dong'i ketgan ta'lim dargohlari shakllangan ma'naviy tarbiya makoni sifatida dovruc qozongan.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti” milliy tadqiqot universiteti ushbu zaminda 90 yil oldin tashkil etilgan va hozir eng nufuzli ta'lim dargohlaridan biridir.

Universitetimizning buguni va zamonaviy taraqqiyotini 90 yillik tarixisiz tasavvur etib bo'lmagan kabi mamlakatimiz ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini ham bosib o'tilgan ana shu shonli yo'lni bilmay, uni chuqur o'rganmay turib anglash qiyin.

Eng zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, tafakkur dunyosi keng yoshlarsiz O'zbekiston kelajagi, jahon hamjamiyatidagi mustahkam



o'rmini tasavvur etib bo'lmaydi. Barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoit yaratish bu boradagi faoliyatning strategik maqsadidir. Deyarli 100 yillik an'analarga ega oliygohimizning bugungi faoliyati ushbu yo'nalishdagi islohotlarning yaqqol misoli bo'la oladi.

Shonli tarixi va zamonaviy faoliyati nuqtayi nazaridan universitetimiz tashkil etilganidan bugungacha muvaffaqiyatga boy tadjiriy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan oliy ta'lim dargohidir.

Davomi 5-betda

9-aprel – Amir Temur
tavallud topgan kun



Hakim Yo'ldoshev olgan surat.

UZOQ SHARQQA MASH'AL BO'LGAN “SHARQ YULDUZI”

YOXUD KAPITAN KAYDALOVNING QUVONCH VA ARMONLARI

Harbiy majburiyatni o'tash davrim 1989-1991-yillarga to'g'ri kelgan. Bu paytda sobiq ittifoq o'z hukmronligini saqlab turgan bo'lsa-da, so'nggi nafasini olayotgan kezlar edi. Dastlab yarim yil Volgograd shahridagi

serjantlar maktabida tayyorgarlikdan so'ng o'n chog'li askar xizmatini davom ettirish uchun Uzoq Sharqqa — Amur viloyatiga safarbar qilindik.

Temir yo'l qo'shinlari tarkibiga kiruvchi biz tushgan harbiy qism BAM (Baykal-Amur magistrali) deb ataluvchi asr qurilishida

ishtirok etar ekan. Kichik serjant unvoni bilan menga bo'linma komandirligini topshirishdi. Vazifam o'zim mas'ul bo'lgan, 7 askardan iborat bo'linmaga rahbarlik qilib, yangi yotqizib ketilayotgan temir yo'l da texnik sozlash ishlarini bajarish edi.

Davomi 6-betda

“МАРКАЗИЙ ОСИЁ - ЕВРОПА ИТТИФОҚИ”
БИРИНЧИ САММИТИ

INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK KO'PRIGI

Shu yil 3-4-aprel kunlari qadimiy Samarqand shahri Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi tarixiy sammitga mezbonlik qildi. Bunday yuqori darajadagi uchrashuvlar odatda diplomatik protokollar, geosiyosiy muhokamalar va rasmiy bayonotlar doirasida baholanadi. Biroq bu sammit o'zining aniq amaliy natijalari va fuqarolar manfaatiga yo'naltirilgani bilan ajralib turdi. U YI va MO o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamladi va mintaqadagi oddiy aholi hayotida muhim o'zgarishlar yasash uchun mustahkam poydevor barpo etdi.

Sammit doirasidagi eng muhim voqealardan biri Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen tomonidan YIning “Global Gateway” tashabbusi doirasida 12 milliard yevro miqdoridagi strategik investitsiya paketi e'lon qilangani bo'ldi. Ushbu investitsiya barqaror infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, raqamli aloqa va muhim strategik xomashyo materiallariga oid loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan. Bu esa qurilish, logistika, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya sohalarida minglab yangi ish o'rinlari ochilishi, mintaqaviy energetika hamda transport tizimining yaxlit integratsiyasini ta'minlaydi.

Davomi 2-betda



SAMARQAND
IQLIM FORUMI
4-5 APREL 2025

4-5-aprel kunlari Samarqand xalqaro iqlim forumi doirasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda vazirlik huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligi Jahon banki bilan birgalikda “O'zbekistonda barqaror landshaftlarni tiklash” loyihasi boshlanganini e'lon qildi.

O‘RMON VA DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN YERLARNI TIKLASH

JAHON BANKI LOYIHAGA
153 MILLION DOLLAR AJRATADI

Jahon banki loyihani amalga oshirish uchun 153 million dollar ajratadi. Bu loyiha Markaziy Osiyoning beshta davlatida o'rmonlar va degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklashga ko'maklashish bo'yicha mintaqaviy dasturning bir qismidir.

— Jahon banki bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilayotgan loyiha O'zbekiston o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga yordam beradi, — deydi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abdurahimov. — Bu o'n yillik oxiriga qadar o'rmonlar maydonini 6,1 million gektarga yetkazish masalalarini ham o'z ichiga oladi. Loyiha degradatsiyaga uchragan yerlarga buta va daraxt ekish orqali mahalliy landshaftlar barqarorligini hamda oziq-ovqat tizimlari unumdorligini oshiradi, shuningdek, aholi turmush sharoitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish va ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Davomi 4-betda



So‘z — xalqaro anjuman ishtirokchilariga

TOSHKENT — GLOBAL MULOQOT MAYDONI

Boshlanishi 1-betda

**Martin CHUNGONG,
Parlamentlararo Ittifoq
bosh kotibi:**

— Vataningizning yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganimdan benihoya mamnunman. Buning uchun Prezidentingiz va xalqingizga chin dildan minnatdorlik bildiraman. Keyingi yillarda mamlakatingiz bilan hamkorligimiz yuksak darajaga chiqib, samarali aloqalar yildan yilga kengaymoqda. Birgalikda qator yirik xalqaro tadbirlar tashkil etdik. BMT Bosh Assambleyasining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlar rolini kuchaytirish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.

**Tashkilotimizning
150-yubiley tadbiri
O‘zbekistonda
o‘tayotgani yana bir
katta voqealikdir. Bunday
tadbir Markaziy Osiyoda
ilk bor tashkil etilmoqda
va bu imkoniyatni
yaratib bergani
uchun davlatingiz
rahbariga yana bir bor
minnatdorlik bildiraman.**

Ushbu anjumanda Prezidentingiz o‘z nutqi bilan ishtirok egani tadbiring nufuzini yanada oshirdi. Zero, nutqda bugun dunyoda dolzarb ko‘plab masalalar qamrab olindi. Shuningdek, mamlakatingizdagi demokratik islohotlar, ularning hayotiy samarasi chuqur tahlil etildi. Jumladan, parlamentga ko‘proq vakolatlar berish, gender tenglikni rag‘batlantirish, ayollar

**Feruza ESHMATOVA,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisining
Inson huquqlari bo‘yicha vakili:**

— Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi O‘zbekistonda o‘tkazilayotgani yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, parlamentarizm va vakillik hokimiyatini rivojlantirish borasida erishilayotgan katta natijalar e‘tirofidir. Darhaqiqat, so‘nggi yillarda yurtimizda barcha sohalar, shu jumladan, inson huquqlarini muhofazalash borasida huquqiy va amaliy ishlar tubdan takomillashyapti. Shuningdek, demokratik islohotlar jarayonida jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta‘minlashga ham alohida e‘tibor qaratilaypti. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlari muhofazasi bilan bog‘liq me‘yorlar



3,5 barobar ko‘paygani buning yaqqol isbotidir.

O‘z navbatida, ombudsman institutining maqomi va vakolatlari ham mustahkamlanaypti. Hozirgi kunda ombudsmanning hududlarda mintaqaviy vakillari ishlayapti. Ular aholi orasiga kirib, murojaatlarni bevosita

**Amerika PERES,
Venesuela Milliy assambleyasi
raisi o‘rinbosari:**

— O‘zbekistonga birinchi marotaba kelishim. O‘zbek xalqining do‘stona munosabati va boy madaniyati bizni lol qoldirdi. Venesuela Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishdan manfaatdor. Mazkur tashrif orqali biz mamlakatingiz bilan parlamentlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yish asnosida barcha sohalarni rivojlantirishni maqsad qilganmiz.

Shu ma’noda, Parlamentlararo Ittifoqning 150-sessiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri bilan uchrashuvimiz muhim voqea bo‘ldi. Unda parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish, do‘stlik guruhlarini tuzish



orqali munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga kelishib oldik.

O‘ylaymizki, parlamentlararo samarali hamkorlik aloqalarini kengaytirish va o‘zaro tashriflarni amalga oshirish ikki tomon uchun ham manfaatlidir bo‘ladi.



“

Dunyoda tinchlik, taraqqiyot va adolatni ta‘minlash, inson huquqi va manfaatlariga jiddiy to‘g‘onoq bo‘layotgan tengsizliklarning asl sabablarini aniqlash va unga qarshi kurashish barchamizning umumiy ishimiz bo‘lishi lozimligi aytiladi. Bu fikr va g‘oyalar insoniyatning bugungi hayoti va kelajagi uchun katta chaqiriqdir. U barchamizni tinchlik va taraqqiyotga erishish yo‘lida doimo faol bo‘lishga da‘vat etadi.

tinglab, inson huquqlariga oid muammolarni joyida hal etishga e‘tibor qaratyapti.

Bu borada erishilayotgan natijalarimiz xalqaro miqyosda e‘tirof etilayotgani bizni juda quvontiradi. Ushbu tadbirda ham O‘zbekistonda turli sohalarda erishilayotgan natijalar alohida e‘tirof etildi va o‘zaro aloqalarni yanada kengaytirish bo‘yicha

ko‘plab taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Ularni ro‘yobga chiqarish ombudsmanlar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Biz buni chuqur anglagan holda, belgilab olingan reja va dasturlar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash orqali xalqimizning turmushini yanada farovon etishga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

**Klaudio Kayadu SAMPAYO,
Braziliya parlamenti a‘zosi:**

— Biz, Parlamentlararo Ittifoq a‘zolari uchun O‘zbekiston Prezidentining ushbu tadbirda ishtirok etishi va so‘zga chiqishi katta ahamiyatga ega. Prezidentingiz nutqida bildirilgan fikrlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz.

Assambleya doirasidagi muhokamalar va qabul qilinadigan qarorlar kelajak uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki biz, turli mamlakatlardan kelgan parlament a‘zolari birgalikda qonunlar ishlab chiqamiz, kuchli demokratiyani mustahkamlaymiz hamda o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishning yangi yo‘llarini izlaymiz.

Shu bilan birga, bag‘rikenglik tamoyilini ham muhim deb bilamiz. Biz barcha xalqlar, madaniyatlardan va qarashlarning xilma-xilligini hurmat qilamiz va bu tamoyilni o‘z ishimizda doim inobatga olamiz.

O‘zbekiston parlamenti faoliyati bilan yaqindan tanishmiz. Parlamentingizning tashkilotchilik darajasi juda yuqori, barcha ishlar yuksak saviyada tashkil etiladi. Hamkasblarimizning ushbu salohiyatiga



yuqori baho beramiz va hamkorlikka hamisha tayyormiz.

Umuman olganda, O‘zbekistonda o‘tayotgan mazkur Assambleya parlamentlar ishini rivojlantirish, o‘zaro hamkorlikni kengaytirish istiqbollarini ochdi va bizda katta taassurot qoldirdi. Ushbu nufuzli tadbirda menga ham so‘z berishgani, fikrlarim bilan o‘rtoqlashish imkoniyatiga ega bo‘lganim uchun tadbir tashkilotchilariga chuqur minnatdorlik bildiraman.

**Fazliddin ANVAROV,
Raqamli texnologiyalar
vazirligi bo‘lim boshlig‘i:**

— Raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti barcha sohalarda katta yutuqlarga zamin yaratmoqda. Shu sababli yurtimizda ham sun‘iy intellektni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilyapti.

Bunday texnologiyalarning turli sohalarga kirib kelishi ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish, xalqimizning uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilishga zamin yaratmoqda, ochiqlik, shaffoflikni ta‘minlash, korrupsiyaning oldini olishga xizmat qilyapti. Shu bilan birga, sun‘iy intellekt texnologiyalarini yaratish hamda qo‘llashdagi etika qoidalari va tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Xalqaro anjuman bugun ham davom etadi. Uning doirasidagi tadbir va debatlarida parlamentlar oldida turgan eng asosiy vazifalar yuzasidan atroflicha fikr almashiladi hamda istiqbolli rejalarni belgilab olinadi.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA yozib oldi.**

INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK KO‘PRIGI

Boshlanishi 1-betda

Ushbu anjuman mintaqalarimiz o‘rtasidagi hamkorlik rivojida yangi bosqich boshlanishini anglatadi. Mazkur loyihalar faqat makroiqtisodiy yutuqlar bilan cheklanib qolmay, fuqarolar hayotida yaqqol sezilarli o‘zgarishlarni — qulay transport, barqaror energiya ta‘minoti, keng qamrovli raqamli xizmatlar va zamonaviy shahar hamda qishloq infratuzilmasini olib keladi. Bu Markaziy Osiyo xalqlarining hayot sifati sezilarli darajada yaxshilanadi degani.

Samarqand sammiti doirasida imzolangan savdo va investitsiya bitimlari ham ayni darajada muhim ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy mahsulotlarni Yevropa bozoriga eksport qilish salohiyatini oshirishga qaratilgan. Yevropa Ittifoqining texnik reglamentlar va sertifikatlash jarayonini muvofiqlashtirish bo‘yicha ko‘rsatayotgan ko‘magi Markaziy Osiyodagi ishlab chiqaruvchilar, jumladan, o‘zbekistonlik tadbirkorlarga xalqaro standartlarga mos ravishda tez va samarali raqobatlashish imkonini beradi.

“

Sammitning eng muhim natijalaridan biri Transkaspiy transport yo‘lagini rivojlantirishga oid kelishuv bo‘ldi. Yevropa Ittifoqi bu borada “Global Gateway” tashabbusi doirasida 10 milliard yevro miqdoridagi investitsiya yo‘naltirish niyatida ekanini allaqachon ma‘lum qilgan edi. Sammitda ushbu loyihalarni ro‘yobga chiqarishni davom ettirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

**Eldor TULYAKOV,
“Taraqqiyot strategiyasi”
markazi ijrochi direktori**

ko‘nikmalar bilan ta‘minlash barobarida milliy islohotlar hamda davlat boshqaruvi institutlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish masalasida ham muhim kelishuvlarga erishildi. O‘zbekiston 2030-yilga borib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazishni maqsad qilgan. Sammit doirasida Yevropa Ittifoqi bilan quyosh va shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish, “yashil” investitsiya platformalarini yaratish hamda iqlim siyosati bo‘yicha hamkorlik, jumladan, karbon kreditlarni mintaqaviy bozorini ishga tushirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.



Kun mavzusi

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

Bundan tashqari, inson huquqlari, gender tenglik, OAV erkinligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga e‘tibor sheriklikda umumiy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu tamoyillar o‘zaro ishonch va uzoq muddatli hamkorlik poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash ustuvor vazifadir. Yevropa Ittifoqining institutsional islohotlar, fuqarolik erkinliklari va ochiq boshqaruvni qo‘llab-quvvatlashi Markaziy Osiyoning rivojlanish strategiyasiga hamohang.

Samarqand sammiti oddiy diplomatik yutuq emas, balki ikki mintaqa hayotini o‘zgartirish salohiyatiga ega strategik

voqeadir. Uning asosiy jihati qabul qilingan qarorlarni amalga tatbiq etish, yangi ish o‘rinlari ochishga xizmat qiluvchi investitsiyalar, iqtidorni oshiradigan ta’lim almashinuvlari, barqarorlikni ta’minlovchi energetika hamkorligi va inson qadriini yuksaltiruvchi islohotlardir.

Jahon tartibi beqarorlik va parchalanish xavfi ostida turgan bir paytda Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi sherikligi konstruktiv va kelajakni ko‘zlovchi hamkorlik namunasini taklif etmoqda. Endi bu ulkan g‘oya va kelishuvlarni hayotga tatbiq etish jarayoni millionlab inson hayotida ushbu strategik yutuqlar qay darajada o‘z aksini topishini belgilab beradi.

KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH –
UMUMMILLIY BURCH

Boshlanishi 1-betda

Qisqa davrda ushbu yo‘nalishda huquqiy asoslar va aniq tizim yaratildi, barcha tashkiliy masalalar hal qilindi. 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat, xususan, 5 ta qonun, 30 dan ortiq farmon va qaror, 4 ta davlat dasturi qabul qilindi.

Parlament palatalarida bevosita shu masala bilan shug‘ullanuvchi maxsus qo‘mitalar, xalq deputatlari mahalliy kengashlarida doimiy komissiyalar, barcha idoralar ishini muvofiqlashtiruvchi Milliy kengash, maxsus vakolatli davlat organi — Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Davlat boshqaruvi tizimi, davlat xizmatlari ko‘rsatish tartib-taomillari tubdan takomillashtirildi. Barcha davlat idoralarining ochiq va shaffof faoliyat yuritishiga erishildi.

“Korruptsiyasiz soha”, “Korruptsiyasiz hudud” loyihalari, “Komplayens nazorat”, “Jamoatchilik nazorati” kabi mutlaqo yangicha mexanizmlar joriy etilgani ham o‘zining ijobiy natijalarini bermogda. Davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi kurashish va ochiqlik borasidagi ishlari samaradorligini reyting baholash, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash tizimlari yo‘lga qo‘yildi.

Ahamiyatli jihati, korruptsiyaga qarshi kurashishga nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki barcha vazirlik va idoralar, keng jamoatchilik to‘liq jalb qilindi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o‘rni va ta’siri ortib borayotgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimizda korruptsiyaga qarshi kurash umummilliy harakatga aylandi. Natijalar ko‘lami haqida esa uzoq gapirish mumkin. Buni xalqimiz ham, xalqaro hamjamiyat ham e’tirof etmoqda.

So‘nggi e’lon qilingan “Open data inventory” ochiq ma’lumotlar reytingida O‘zbekiston 15 pog‘ona ko‘tarilib, jahon bo‘yicha 30-o‘rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o‘rinni egalladi.

Biroq korruptsiyaga qarshi kurash jarayoni muayyan vaqt bilan belgilanmaydi, unga murosasizlik munosabati doimiy sa’y-harakatlarni talab qiladi. Zero, shiddatli o‘zgarishlar asri bo‘lgan hozirgi davrda, afsuski, korruptsiyaning yangidan yangi ko‘rinishlari, murakkab sxemalari paydo bo‘lmoqda, geografiyasi ham kengaymoqda.

Birgina o‘tgan yilda korruptsiyaviy qilmishlari uchun 4906 mansabdor javobgarlikka tortilgani, ulardan 2,3 trillion so‘m zarar undirib olingani ham hali muammolar borligini ko‘rsatmoqda.

Bu esa korruptsiyaning faqat oqibati bilan kurashish emas, unga imkon bergan sabab va omillarni tag-tomiri bilan yo‘qotadigan preventiv choralarni kuchaytirish lozimligini anglatadi. Zotan, korruptsiyaga qarshi milliy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarda korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Xalqaro ekspertlar fikricha, bu illatni faqat qonunlar qabul qilish va jazo choralarni kuchaytirish bilangina bartaraf etib bo‘lmaydi. Buning uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va jamiyatning korruptsiyaga qarshi ma’naviy immunitetini oshirish ham zarur.

Bosh prokuraturaning rahbar xodimlari har bir vazirlik va idoralarga mas’ul etib birlashtirildi. Qisqa muddatda prokuratura organlari xodimlari tomonidan 70 ga yaqin vazirlik va idoralarda, ularning barcha bo‘g‘inida mutasaddilarni to‘liq jalb qilgan holda sohadagi korruptsiyaviy omillar birmabir muhokama qilindi. Natijada har bir vazirlik va idora bo‘yicha ularning eng quyi bo‘g‘inini ham qamrab olgan holda aniq va manzilli choralarni nazarda tutgan alohida “yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi.



Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Bosh prokurori

Shu nuqtayi nazardan, Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining joriy yil 5-mart kuni Prezidentimiz ishtirokida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishi bu boradagi muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Qolaversa, mazkur tadbir jahon miqyosida O‘zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini yana bir bor ko‘rsatib berdi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbarining korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilgari surgan tashabbuslari ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Albatta, davlat va jamiyat hayotida qonun ustuvorligini ta’minlash hamda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantirishda prokuratura organlari oldiga ham muhim vazifalar qo‘yildi. Shundan kelib chiqib, prokuratura organlarining bu boradagi ishini qayta ko‘rib chiqdik. Alohida farmoyish qabul qilib, prokuratura organlarining eng quyidan yuqorigacha bo‘lgan butun tizimida kuchaytirilgan ish tartibi joriy qildik.

Bu masalalarga barcha darajadagi prokurorlarning shaxsan mas’ulligi va javobgarligini belgiladik, Bosh prokuror rahbarligida Muvofiqlashtiruvchi shtab ham tashkil etildi.

Umuman, mazkur yig‘ilishda berilgan ko‘rsatmalarga muvofiq, davlat va jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha mutlaqo yangi tizimni yo‘lga qo‘yidik.

Birinchidan, butun sa’y-harakatlarimizni korruptsiyaning oqibatlarini bilan kurashishga emas, avvalo, chuqur o‘rganish va tahlillar asosida ularni keltirib chiqarayotgan omillarni aniqlash hamda tag-tomiri bilan bartaraf etishga, qisqasi, preventiv choralarga yo‘naltiridik.

Shu maqsadda Bosh prokuraturaning rahbar xodimlari har bir vazirlik va idoralarga mas’ul etib birlashtirildi. Qisqa muddatda prokuratura organlari xodimlari tomonidan 70 ga yaqin vazirlik va idoralarda, ularning barcha bo‘g‘inida mutasaddilarni to‘liq jalb qilgan holda sohadagi korruptsiyaviy omillar birmabir muhokama qilindi. Natijada har bir vazirlik va idora bo‘yicha ularning eng quyi bo‘g‘inini ham qamrab olgan holda aniq va manzilli choralarni nazarda tutgan alohida “yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi.

Qisqa muddatda 10 dan ortiq sohada maishiy va tizimli korruptsiyaviy omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha 20 ga yaqin aniq takliflar tayyorlandi. Misol uchun, mamlakatda birgina 2024-yilda 3531 gektar yer talon-taroj qilingani, qishloq xo‘jaligi yeriga 227,6 milliard so‘m zarar yetkazilgani aniqlanib, bu holatlar bo‘yicha 1854 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

O‘tkazilgan tahlillarda mazkur qonun buzilishi holatlarining kelib chiqishiga aksariyat hollarda korruptsiya aralashgani ma’lum bo‘ldi. Shu bois, sohadagi korruptsiyaviy omillarni bartaraf qilish uchun tegishli qaror loyihasini tayyorladik. Unda barcha vakolatli idoralarni “E-YER NAZORAT” dasturiga integratsiya qilish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, yerdan foydalanish holatini har yili ikki marotaba inson omilisiz aerokosmik monitoringdan o‘tkazish, aniqlangan qonunbuzarliklar yuzasidan real vaqt rejimida nazorat idoralari ma’lumot yuborish tizimini joriy etish taklif qilinmoqda.

Bundan buyon prokurorlar qonunchilik ijrosi bo‘yicha o‘tkaziladigan har qanday nazorat tadbirida tizimli qonunbuzilishlar bilan birga korruptsiyaviy omillarni ham aniqlash va bartaraf qilishga alohida e’tibor qaratadi.

Ikkinchidan, milliy parlament hamda mahalliy kengashlar bilan hamkorligimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, korruptsiya omillarini bartaraf etish va bevosita rahbarlarning shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini oshirishda kengashlar imkoniyatidan keng foydalanishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Milliy parlamentimiz bilan hamkorlikda korruptsiya ko‘p kuzatilayotgan soha va hududlar bo‘yicha chuqur tahlillar o‘tkazib, bevosita vazirlik va idoralarning hay’at yig‘ilishlarida hamda Milliy kengashda tanqidiy muhokamalar o‘tkazish tizimini yo‘lga qo‘yganmiz.

2024-yilning o‘zida 10 dan ortiq vazirlik va idora, mahalliy hokimliklar tizimida o‘tkazgan tahlillarimiz natijasi Milliy kengashda ko‘rib chiqilib, manzilli chora-tadbirlar ijroga qaratildi.



Davlat va jamiyat hayotida qonun ustuvorligini ta’minlash hamda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantirishda prokuratura organlari oldiga ham muhim vazifalar qo‘yildi. Shundan kelib chiqib, prokuratura organlarining bu boradagi ishini qayta ko‘rib chiqdik. Alohida farmoyish qabul qilib, prokuratura organlarining eng quyidan yuqorigacha bo‘lgan butun tizimida kuchaytirilgan ish tartibi joriy qildik.

Shuningdek, nazorat va tergov faoliyatida aniqlanayotgan muammolar hamda korruptsiyaviy omillarni bartaraf qilish yuzasidan parlament va hukumatga 100 dan ortiq axborot va normativ hujjat loyihalarini kiritdik.

Korruptsiyaviy jinoyatlar aksariyat hollarda mahalliy darajada, ya’ni tuman va mahalla miqyosida sodir etilmoqda. Shu bois, parlament qo‘mitalari, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda respublika idoralararo ishchi guruhlarini tuzilib, eng chekka mahallagacha, har bir sohaning quyi bo‘g‘iniga qabul qilib, korruptsiyaning ildizlarini aniqlash va bartaraf etish chorasi ko‘rilmogda.

Ishchi guruhlar tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Andijon va Farg‘ona viloyatlarida o‘rganishlar amalga oshirilib, korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy kengashlar yig‘ilishi o‘tkazildi hamda zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Uchinchidan, ko‘p bora ta’kidlanganidek, korruptsiyaning oldini

“

Qisqa muddatda 10 dan ortiq sohada maishiy va tizimli korruptsiyaviy omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha 20 ga yaqin aniq takliflar tayyorlandi. Misol uchun, mamlakatda birgina 2024-yilda 3531 gektar yer talon-taroj qilingani, qishloq xo‘jaligi yeriga 227,6 milliard so‘m zarar yetkazilgani aniqlanib, bu holatlar bo‘yicha 1854 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



olishning eng qulay va samarali yo‘llaridan biri raqamlashtirishdir.

“Shaffof qurilish” tizimi ko‘plab byurokratik to‘siqlarni bartaraf qilish, qonunbuzarliklarni barvaqt to‘xtatishga imkon bermogda.

O‘tgan yili bu tizim orqali qurilish loyihalariga 3,7 trillion so‘m ortiqcha kiritilgani, shuningdek, 63 milliard so‘mlik sifatsiz ishlar va 83 milliard so‘mlik qo‘shib yozish holatlarini aniqlab, talon-tarojning oldini olishga erishdik.

mamlakatda qulay biznes va investitsiyaviy muhit yaratish, tadbirkor va investorlar huquqlarini kafolati himoyalash choralari izchil ko‘rib borilmoqda.

Jinoyatchilikdan xoli, tinch va osoyishta maskanda tadbirkorlik rivojlanadi, investorlar ham sarmoyasini ana shunday xavfsiz hududga kiritadi.

Prokuratura organlari bu masalaga har doim jiddiy e’tibor qaratib kelgan.

O‘tgan yili prokuratura organlari tomonidan tadbirkorlar, jumladan, investorlar faoliyatiga noqonuniy aralashuv va turli byurokratik to‘siqlar bilan bog‘liq ko‘plab holatlar aniqlanib, bartaraf etilgani, yuzlab subyektning buzilgan huquqlari tiklab berilgani ham shundan dalolat.

Yig‘ilishda berilgan topshiriqlar asosida aholi va tadbirkorlar, jumladan, investorlarni korruptsiyaviy tajovuzlardan himoyalash, bunday xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va oldini olish tizimini yangi mexanizmlar asosida tubdan takomillashtirdik.

Xususan, korruptsiyaviy holatlarga zudlik bilan munosabat bildirish maqsadida Bosh prokuraturaga tezkor xabar berish imkoniyatiga ega, tunu kun ishlaydigan “1161” raqamli “ishonch telefoni” va “@bpantikoruz_bot” telegram boti ishga tushirildi.

Ba haqda aholi gavjum joylar, jumladan, aeroport, temir yo‘l va avtovokzallar, reklama monitorlarida maxsus roliklar namoyish etilmoqda.

Qisqa muddatda, ya’ni 10-25-mart kunlari mazkur tizim orqali 275 ta ariza va xabar qabul qilindi hamda belgilangan tartibda ko‘rib chiqilmogda.

Beshinchidan, korruptsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ham qator vazifalar oldimizga qo‘yildi.

Darhaqiqat, qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish sohalardagi tizimli muammolar yechimiga huquqiy asos bo‘ladi. Shu bois, Milliy kengash yig‘ilishida qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha belgilab berilgan aniq yo‘nalishlarda xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda ishlar jadal bajarilmogda.

Oltinchidan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu boradagi faoliyatimizni ham yangi bosqichga olib chiqish choralari ko‘rilmogda.

Xususan, Huquqni muhofaza qilish akademiyasining “Virtual akademiya” platformasida alohida dasturlar yaratib, o‘quvchi va talabalarni o‘qitish orqali korruptsiyaga qarshi immunitetni yuksaltirish shakllantirishga e’tibor qaratilmogda.

Prokuratura organlari tomonidan aholi va davlat xizmatchilarida korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantirish, ularga

“halollik vaksinasi”ni singdirish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmasini oshirishga ham kundalik vazifa sifatida qaralmogda.

Ushbu yo‘nalishda Huquqni muhofaza qilish akademiyasida maxsus o‘quv dasturlarini tashkil etib, davlat xizmatchilarini o‘qitish, malakasi va ma’naviyatini oshirish tizimini yo‘lga qo‘ydik. Ushbu tizim asosida 95 mingdan ortiq davlat xizmatchisi o‘qitildi.

Yettinchidan, korruptsiyaviy omillarga tashxis qo‘yishda ilmiy-amaliy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ham Huquqni muhofaza qilish akademiyasida ilmiy maktab poydevori yaratilgan, jumladan, korruptsiya muammolarini tadqiq qilish bo‘yicha alohida ilmiy markaz, magistratura yo‘nalishi hamda ilmiy kengash faoliyat ko‘rsatmogda.

Bundan tashqari, qatarlik hamkorlarimiz bilan Korruptsiya muammolari tadqiqot markazi tashkil qilinmogda.

Yana bir masala. Qilingan ishlarni jamoatchilikka yetkazish, umuman, fuqarolarning fikr-mulohazalari va takliflari asosida ishimizni yanada samarali tashkil qilish choralariga ham alohida e’tibor qaratmoqdamiz.

Shu maqsadda “Jamiyatimizni korruptsiyadan birgalikda xalos etaylik!” shiori ostida 33 banddan iborat media-reja ishlab chiqib, ijroga qaratdik. Joriy yil 25-mart kuni Bosh prokuraturamiz mamlakatimiz aholisiga murojaati ham e’lon qilindi.

Umuman olganda, bundan buyon barcha kuch va vositalarimiz korruptsiyaga qarshi kurashishga to‘liq safarbar qilinadi.

Bu borada davlat va nodavlat tuzilmalari, hokimliklar, keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqamiz, jamiyatning barcha qatlami salohiyatini birlashtirish yo‘lidan boramiz. Jamiyatda korruptsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish choralarini ko‘ramiz.

Albatta, bu vazifalarni bilimli, tashabbuskor, sadoqatli va bugungi islohotlar natijalariga daxldorlik hissi bilan yashaydigan xodimlar korpusi bilangina samarali amalga oshirish mumkin. Shu bois, xodimlarimizning bilim, dunyoqarashi, ongu tafakkurini rivojlantirish, ma’naviyatini yuksaltirish ishlarni izchil davom ettiramiz.

Mamlakatimizda jinoyatchilik va korruptsiyaning oldini olish, umuman, barcha sohalarda qonuniylilni ta’minlashda biz — prokuratura xodimlari, eng avvalo, xalqimizning xayrixohligi, hamjihatligi va ko‘magiga tayanamiz.

Agar har bir fuqaro jonajon vatanimizni jinoyatdan, korruptsiyadan xoli, tinch va xavfsiz o‘lkaga aylantirishga o‘z hissasini qo‘shsa, barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, birgalikda kurashsak, ko‘zlangan maqsadga, albatta, erishamiz.



Iqlim forumi

Boshlanishi 1-betda

Bundan tashqari, loyiha tabiiy resurslardan yanada samarali foydalanish orqali kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlaydi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizmini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda koʻchatlarning iqlim sharoitimizga mosligi, sifatiga unchalik ahamiyat berilmayotgan edi. Endilikda loyiha doirasida ushbu jihatlariga ham alohida eʼtibor qaratiladi.

Uning yana bir afzalligi shundaki, yaratiladigan barcha bogʻlar, oʻrmonlar, yashil qoplamalar Oʻrmon xoʻjaligi agentligi tasarrufida boʻladi. Mablagʻlar nafaqat koʻchatlar ekilishi, balki parvarishiga ham yoʻnaltiriladi.

Mazkur loyiha mamlakat hududlarida landshaft barqarorligini taʼminlash va oʻrmonlarni qayta tiklash, shuningdek, Oʻzbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari oʻrtasida transchegaraviy tabiiy hududlarni tiklash boʻyicha hamkorlikni mustahkamlaydi. Ushbu tadbirlar mamlakatimizning 6 ta hududi — Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida amalga oshiriladi.

Oʻzbekistonda oʻrmon resurslari cheklangan. Maʼlumotlarga koʻra, oʻrmon bilan qoplangan yer maydoni 4,4 million gektarni, umumiy yer maydonining esa 10,6 foizini tashkil qiladi. Oxirgi 10 yilda oʻrmonzorlar maydonini koʻpaytirishga jiddiy eʼtibor qaratildi. Orol dengizining qurigan tubida oʻrmon barpo etish hajmi keskin koʻpaytirilganini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2024-yil 27-mart kuni qabul qilingan “Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida “Oʻzbekistonda barqaror

“Oʻzbekistonda oʻrmon resurslari cheklangan. Maʼlumotlarga koʻra, oʻrmon bilan qoplangan yer maydoni 4,4 million gektarni, umumiy yer maydonining esa 10,6 foizini tashkil qiladi. Oxirgi 10 yilda oʻrmonzorlar maydonini koʻpaytirishga jiddiy eʼtibor qaratildi. Orol dengizining qurigan tubida oʻrmon barpo etish hajmi keskin koʻpaytirilganini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

oʻrmon landshaftlarini tiklash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, mamlakatimizning 176 ming gektar yer maydonida oʻrmonzorlarning tabiiy tiklanishiga koʻmaklashish, 38,5 ming gektar yerda yaylovlarini qayta tiklash choralarini koʻrilmoqda. Shuningdek, 15 ming gektarda suvni tejash va togʻ oʻrmonlarida tuproq eroziyasiga qarshi kurashish, 14,2 ming gektarda agrooʻrmonchilik tadbirlarini amalga oshirish, 5 ming gektarda sanoatboq oʻrmonzorlar hamda 5 ming gektar yer maydonida dorivor oʻsimliklar plantatsiyalarini tashkil qilishga kirishilgan.

Iqlim oʻzgarishi oʻrmonlar degradatsiyasini tezlashtirmoqda. Oʻz navbatida, bu yongʻinlar koʻpayishi, zararkundalar tarqalishi va daraxt kasalliklari ortishiga olib keladi.

Jahon banki Oʻzbekiston hukumatining degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash borasidagi saʼy-harakatlarni qoʻllab-quvvatlayotganini yuqori baholadi. Yangi loyiha orqali mamlakat Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan Markaziy Osiyoda barqaror landshaftlarni tiklash dasturiga qoʻshiladi. Dastur Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston va Oʻzbekistonning shahar va qishloq

hududlarida iqlim oʻzgarishlari oqibatlarini yumshatishga xizmat qiladi.

Oʻrmon xoʻjaligi agentligi loyiha doirasida degradatsiyaga uchragan yerlar, daraxtlarni tiklaydi. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish asosida kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish uchun fermerlarga moliyaviy va taʼlim sohasida yordam koʻrsatadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va oʻrmon qoʻriqxonalari boshqarishni takomillashtirish hamda 6 ta hududda barqaror ekoturizmi rivojlantirish maqsadida Oʻzbekistonda birinchi boʻlib oʻrmon plantatsiyalari boʻyicha yagona maʼlumotlar bazasi va Oʻrmon xoʻjaligi agentligi uchun axborot-kommunikatsiya platformasi yaratiladi.

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish universiteti hamda Oʻrmon xoʻjaligi agentligi huzuridagi loyihani amalga oshirish boʻyicha guruh oʻrtasida oʻzaro anglashuv memorandumini imzolandi. Bitim oʻrmon xoʻjaligi sohasida uning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar uchun loyiha mablagʻlari hisobidan grant ajratishini nazarda tutadi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Munosabat

OROL MADANIYAT SAMMITI

TABIAT NAFASI BILAN SUGʻORILGAN GʻOYALAR, INNOVATSIYALAR PLATFORMASI

Yaxshi va uzoqni koʻzlab ilgari surilgan tashabbuslar xayrli boʻladi, qanot yozib, yuksak parvozlarga undaydi. BMTning 2023-yil 22-24-mart kunlari Nyu-Yorkda suv resurslariga bagʻishlab oʻtkazilgan konferensiyasida Oʻzbekiston tomonidan dolzarb tashabbus ilgari surilgan va buni ishtirokchilar qoʻllab-quvvatlagandi. Mazkur tashabbus Markaziy Osiyo davlatlari bilan bir qatorda dunyo hamjamiyatini ham xavotirga solayotgan masala — Orolboʻyi hududidagi vaziyatni oʻnglashga oid edi.

Mamlakatimiz rahbarining joriy yil 28-martdagi “Orol madaniyat sammitini yuqori saviyada oʻtkazish toʻgʻrisida”gi qaroriga koʻra, hududda qulay tabiiy muhit yaratish, noyob madaniyati va tarixiy merosini asrab-avaylash hamda keng ommalashtirish, ushbu yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari, innovatsion loyihalar va ijodiy tashabbuslarni amalga oshirish zarurligi qayd etildi. Buning uchun xalqaro hamkorlik va muloqotni yanada kengaytirish maqsadida joriy yildan boshlab har oʻn sakkiz oyda — bahor yoki kuz faslida Orol madaniyati sammitini oʻtkazish belgilandi.

Sammit Orolboʻyi hududini sanʼat, madaniyat, dizayn va ilm-fan orqali

oʻrin oldi. Ikki kun davomida xalqaro va mahalliy ekspertlar, ekolog olimlar, soha mutaxassislari har bir eksponat boʻyicha qimmatli maʼlumotlarga ega boʻlish bilan birga Orol va ushbu hududning oʻtmishi, buguni bilan ham yaqindan tanishdi.

Loyiha Orolboʻyi va dunyoning boshqa mintaqalarida yuzaga kelgan ekologik muammolarni muhokama qilish hamda oqilona yechimlar taqdim etish uchun oʻziga xos global platforma vazifasini oʻtadi. Umuman, Orol madaniyatini targʻib etish bilan jahon ahlining nigohi yana bir bor mazkur hududga, bu yerdagi ekologik muammolarga qaratildi.

Sammitning uzoq muddatli samarasi mamlakatlar oʻrtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, barqaror rivojlanish



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

ijtimoiy va ekologik jihatdan oʻzgartirishga qaratilgan yangi loyihadir. Shuningdek, u Orol dengizi ekotizimini asrab-avaylash, mahalliy madaniyatni xalqaro maydonda ommalashtirish boʻyicha yangi strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchi Orol madaniyat sammiti 4-5-aprel kunlari Samarqandda yuqori saviyada oʻtkazilgan iqlim forumiga uygʻun holda Samarqand va Nukus shaharlarida tashkil etildi. Unda Orol ekotizimini tiklash, hududning madaniy merosini asrab-avaylash va barqaror rivojlanishiga koʻmaklashishga qaratilgan noyob tashabbuslar namoyish etildi. Vizual, sensor va interfaol vositalar orqali Orolboʻyining tabiiy va madaniy boyligi bilan tanishish imkoniyati yaratildi.

Koʻrgazmadan meʼmorchilik va landshaft fotografiyasiga ixtisoslashgan mashhur fotosuratchi Ivan Baanning asarlari, Qoraqalpogʻiston uchun xos oʻsimlik — qamishdan yasalgan floristik kompozitsiya, shuningdek, Orolboʻyining anʼanaviy mahsulotlari — saksuvul urugʻi, chigʻanoqlar, tabiiy tuz, quritilgan isiriq, naqshli namat va boshqa koʻplab eksponatlar

loyihalariga investitsiya jalb qilish va mahalliy tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratishdan iborat, — deydi filologiya fanlari nomzodi, dotsent Olimjon Duysenboyev. — Kelgusida ishtirokchilar geografiyasini

kengaytirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish va mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun innovatsion yechimlarni joriy etish rejalashtirilgan. Orol madaniyati sammiti nafaqat muhokamalar maydoni, balki Orolboʻyi merosini asrab-avaylash va kelajakda rivojlantirishga qaratilgan haqiqiy saʼy-harakatlar maydoniga aylanadi.

Orol madaniyat sammiti — Orol dengizi hududidagi ekologiya, madaniyat va barqaror rivojlanish boʻyicha dolzarb masalalarni muhokama qilish maqsadida sanʼat, fan va jamoat harakatlari vakillarini birlashtiruvchi anjumandir. Sammit turli mamlakatlardan kelgan mutaxassislar va ijodkorlarni bir joyda toʻplab, ularga gʻoya almashish, hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish va innovatsion loyihalarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Orol madaniyat sammiti mintaqaning ekologik va madaniy muammolariga eʼtiborni jalb qilishda ahamiyatli boʻlib, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga hissa qoʻshadi, ijodkorlarni yechim topishga ilhomlantiradi, — deydi Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi deputati Xalilla Yeshimbetov. — Eng muhimi, Orol dengizini va mahalliy jamoalarning madaniy merosini asrab-avaylashdan manfaatdorlarni birlashtiradi.

Oʻzbekiston, ayniqsa, Qoraqalpogʻiston uchun ulkan ahamiyatga ega voqea sifatida eʼtirof etilayotgan Orol madaniyat sammiti hududning betakror madaniyati va oʻziga xosligini saqlab qolish, ushbu murakkab sharoitda yashayotgan hamyurtlarimizning munosib kelajagini taʼminlash uchun mintaqaga diqqat-eʼtiborni jalb etishga xizmat qiladi. Tadbirda tanqlik madaniyat arboblari, siyosatchilar, rassomlar va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha mutaxassislar ishtirok etdi.

Sammit doirasida Oʻzbekiston Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasi hamda BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan Qoraqalpogʻistonda barqaror rivojlanish sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Oʻzaro anglashuv memorandumini imzolanganiga esa istiqbolida amalga oshirilishi belgilangan ulkan vazifalar samaradorligiga yoʻl ochib berdi.

Nodir QOBULJONOV, jurnalist



“Hovli olma, qoʻshni ol” maqoli asrlar osha qiymatini yoʻqotmay kelmoqda. Qoʻni-qoʻshnichilik munosabatlari, bir-biriga koʻmaklashish, hamjihat yashash esa muqaddas dinimizda ham qadrlanadigan tushunchalardir. Prezidentimizning joriy yil 31-mart kuni Xoʻjand shahrida Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uch tomonlama uchrashuvi tarixiy voqeadir. Mazkur uchrashuv jadal rivojlanayotgan dunyoda uch davlat oʻz birlamligi va birodarligini koʻrsata olgani bilan muhim ahamiyat kasb etdi.



Uch davlat tutashgan chegarada Doʻstlik telasi ochilgani Markaziy Osiyo xalqlari zamonlar osha birodar boʻlib kelayotganining yuksak namunasi boʻldi. Muqaddas va tabarruk kunlarda bunday xayrli ishga qoʻl urilgani mamlakatlararo totuvlikni taʼminlashda, bir tanu bir jon boʻlib, hamkorlikni davom ettirish lozimligini namoyon qiluvchi omildir.

Prezidentimiz uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi toʻgʻrisidagi shartnoma imzolashini yechimini kutayotgan masalalarni uzil-kesil hal etish, barqaror va izchil taraqqiyotni taʼminlashda katta rol oʻynashini, bu butun mintaqaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan tarixiy voqea ekanini bildirdi.

Bundan buyon chegaralar birodarlik chiziqlari, yangi imkoniyatlar, bunyodkorlik va hamkorlik makoniga aylanishini taʼkidladi. Endilikda Markaziy Osiyo xalqlarining birlikda katta kuch boʻlib harakat qilishi davlatlar taraqqiyoti uchun muhim ekaniga urgʻu berdi.

Shuningdek, uchrashuvda Prezidentimiz bundan keyin bajariladigan ishlar va tomonlarning birgalikdagi harakatlari toʻgʻrisidagi masalalarni muhokama qildi. Jumladan, chegaradosh hududlar hamkorligini rivojlantirishga alohida eʼtibor berilib, chegaralardagi bojxona punktlarini kompleks modernizatsiya qilish va kengaytirish, zamonaviy savdo va logistika infratuzilmasini shakllantirish, uch tomonlama

savdo maydonchasi tashkil etib, sanoat va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining doimiy faoliyat koʻrsatadigan koʻrgazma-yarmarkasini yoʻlga qoʻyish belgilandi. Mamlakatlar oʻrtasida savdo-sotiq, turizm sohasida transport aloqalarini rivojlantirish borasidagi ishlarni davom ettirish, aviaqatnovlar sonini koʻpaytirish va geografiasini kengaytirish, chegaraldagi hududlardagi shaharlar oʻrtasida yangi avtobus yoʻnalishlari ochish kabi masalalar koʻrib chiqildi.

Global boʻlib turgan “yashil” energetika va transport sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalar, suv va ekologiya dasturlarini rivojlantirish muhim masalalardan ekaniga urgʻu berilib, iqtisodiy yoʻnalishda yanada faol ishlash, xalqlar

Nuqtayi nazar

FAROVONLIK, BARQAROR TINCHLIK VA HAMJIHATLIK UCHUN ILDAM QADAM

farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar darajasini oshirish lozimligi aytiladi.

Mazkur tarixiy voqea mushtarak maqsad ostida birlashgan xalqlarimiz oʻrtasidagi tarixiy, madaniy va siyosiy aloqalar mustahkamlanishining amaliy koʻrinishidir. Yaqin qoʻshnichilik va strategik sheriklik, barqaror rivojlanish va taraqqiyotni nazarda tutadigan ishlar xalqlarimiz oʻrtasidagi madaniy aloqalarda ham yaqqol koʻzga tashlanadi.

Tarixiy uchrashuv doirasida uch mamlakat madaniyat va sanʼat ustalarini konserti oʻtkazildi. Davlatimiz rahbari bu dastur ham madaniyatlarimizning boyligi, rang-barangligi va mushtarakligini yana bir bor namoyish etganini taʼkidladi.

Prezidentimiz har yili Navroʻz bayrami kunlarida chegaraoldi hududlarda qoʻshma konsert va doʻstlik festivallari oʻtkazish taklifi bilan chiqdi, shuningdek, keyingi yili mazkur tadbirni soʻlim Fargʻonada tashkil qilish taklifini berdi.

Insoniyat uchun tarix har doim eng katta hayot sabogʻini berib kelgan. Oʻz tarixini unutmagan xalqning kelajagi ham porloq boʻladi. Uchrashuvning muhim nuqtasi boʻlgan Xoʻjand qalʼasiga tashrif uchun mamlakat rahbarlarida ilq taassurot qoldirdi. Tarixi miloddan avvalgi IV-V asrlarga borib taqaladigan qalʼada taʼmirlash ishlaridan keyin uning devorlari, ark va darvozalari qayta tiklangani, 28 mingdan ortiq eksponati mavjud boʻlgan oʻlkashunoslik



Bahodir MAʼMUROV, pedagogika fanlari doktori, professor

muzeyi ochilgani tojik xalqining oʻz tarixiga, tarixiy maskanlariga doimo hurmatda ekanini namoyon qiladi.

Davlat rahbarlari tashrif doirasida uch mamlakat hunarmandchiligi, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va milliy taomlari koʻrgazmasini tomosha qildi. Albatta, xalqlarimizning dini, taqdiri-yu tarixi ularni oʻzaro birlashtirib turuvchi nuqta boʻlib xizmat qiladi, qolaversa,

sanʼatimizning yaqinligi insonlarni birlashtirish, hamjihat boʻlib yashashga koʻmaklashadi.

Prezidentimiz Tojikistonga tashrif davomida Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan ham uchrashib, ikki mamlakat oʻrtasidagi muhim strategik aloqalarni muhokama qildi. Ulardan eng muhimi yaqin kunlarda ikki mamlakat oʻrtasida Ittifoqchilik munosabatlari toʻgʻrisida shartnomaning imzolaniishi haqidagi quvonchli xabardir. “Bir makon, bir yoʻl” tashabbusi doirasidagi Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston temir yoʻli qurilishini jadallashtirish muhim ekani, hududlar oʻrtasidagi faol aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish har qachongidan koʻra zarur ishlardan sanalishi aytiladi. Koʻp asrlik doʻstlik va yaxshi qoʻshnichilik munosabatlari izchil kengayib borayotgani xalqlarimiz oʻrtasidagi aloqalar mustahkamlanishiga katta hissa qoʻshishi taʼkidlandi. Endilikda sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarilgan munosabatlarning barcha yoʻnalishlarida hamkorlik koʻlamini kengaytirish lozimligi ikki mamlakat taraqqiyoti uchun zarurligi aytib oʻtiladi.

Tashrif doirasida Oʻzbekiston bilan Tojikiston oʻrtasida Ittifoqchilik munosabatlari toʻgʻrisidagi shartnoma kuchga kirdi. Taʼkidlash kerakki, birgina 2024-yilda 700 million dollardan oshgan tovar ayirboshlash hajmi sanoat, energetika, toʻqimachilik, qishloq xoʻjaligi va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinayotganini namoyish etmoqda. Bu kabi hamkorlik butun Markaziy Osiyo uchun manfaatli boʻladi. Uchrashuvda taʼkidlanganidek, “Endi bu goʻzal zaminni bugungi va kelajak avlodlar munosib va baxtli yashashi uchun birgalikda obod qilish bizning burchimizdir”.

Yangi Oʻzbekiston nafaqat oʻz zaminida, balki mintaqamizdagi yaxshi qoʻshnichilik munosabatlarida xalqlarning farovonligi, barqaror tinchligi, hamjihatlikda yashashi uchun ildam qadam tashlashda davom etadi. Zero, tinchlik va totuvlik, birlamlik bor joyda yuksalish, taraqqiyot va rivojlanish boʻladi.



“Ta’lim sifati va tadqiqot samaradorligini yanada oshirish orqali 2030-yilda dunyo universitetlari orasida ilg‘or 300 talik ro‘yxatga kirish, universitetimiz ta’lim xizmatini eksport qilish, mintaqaviy xabga aylantirish kabilar shular jumlasidan. Bular universitetimizni 2030-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha mo‘ljallangan strategik vazifalarning asosiy tamoyillaridir.



“TIQXMMI” milliy tadqiqot universitetining 90 yilligiga

Bahodir MIRZAYEV,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti rektori



Boshlanishi 1-betda

Birinchidan, alloma bobolarimiz moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlidir, deb bejiz aytmagan. Zero, tarix — buyuk muallim, o‘tmishdan saboq beradigan tarbiyachi, bugunning asosi, kelajakning poydevoridir.

Bu jihatdan XX asrning boshlarida irrigatsiya va melioratsiya hamda qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash bo‘yicha yetuk mutaxassislarni tayyorlaydigan ilk oliy ta’lim dargohining Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib aynan O‘zbekistonda — Toshkentda tashkil etilgan aslo tasodif emas edi.

Ehtimol, ushbu sohada vatanimiz hududida qo‘shni davlatlar uchun ham namuna bo‘ladigan mustahkam tarixiy asos va asriy tajribalar shakllanganing yorqin ifodasi, nuktadan bobolarimizning shu sohadaagi buyukdorlik ishlarining o‘ziga xos mantiqiy davomi bo‘lgani shubhasiz.

Shu nuqtayi nazardan, universitetimizning 90-yillik faoliyatiga nazar tashlar ekanimiz, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, o‘zgarishlar va yangilanishlarning qay tarzda amalga oshgani, qanday natijalarga erishilgan, ushbu dargohda ishlagan fan darg‘alari, olim va mutaxassislar yurtimizdagi ta’lim-tarbiya taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatgani bilan bog‘liq dalillarni esga olamiz.

Ikkinchidan, mintaqamizda ushbu yo‘nalish bo‘yicha yagona institutning yurtimizda tashkil etilgani o‘sha davrning o‘ziga xos talabi va taqozosi edi deyish mumkin.

Chunki XX asr boshlariga kelib, butun mintaq va ayniqsa, mamlakatimizda irrigatsiya, melioratsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ko‘lami kengayib, bu boradagi ishlarning ahamiyati ortib borayotgan edi. Bu esa, o‘z navbatida, soha uchun zarur yetuk kadrlarni tayyorlash tizimini shakllantirishni dolzarb zaruratga aylantirgandi.

O‘sha davrda ilm-fan, adabiyot, madaniyat, maorifni milliy asosga ko‘chirishga intilish, dunyoviy bilimlar, jumladan, irrigatsiya, qishloq xo‘jaligi va melioratsiya masalalariga e’tibor kuchaydi. Bu borada keyinchalik universitetimiz kabi oliy ta’lim muassasalari shakllanishi va takomillashuvi uchun jadid maktablari tizimi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘z navbatida, bularning barchasi 1920-yil 7-sentabrda sobiq sho‘rolar hukumatidan Toshkent shahrida Turkiston davlat universiteti (TDU)ni tashkil etish haqidagi qaror chiqarilishi uchun muhim turtki bo‘ldi. O‘sha davr sharoiti va talablariga mos yirik oliy o‘quv yurti bo‘lgan TDU tarkibidagi 8 fakultet orasida qishloq xo‘jaligi va texnika fakultetlari faoliyat yuritgani esa keyinroq universitetimiz shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchinchidan, universitetimiz ilk shakllanish yillaridan boshlab bugungacha serqirra tiklanish va bir necha bosqichdan iborat taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Jumladan, 1923-yil boshida Turkiston davlat universitetining texnika fakulteti muhandis-melioratorlar fakultetiga aylantirildi. 1923/1924-o‘quv yilida birinchi mutaxassislar tayyorlandi. Qishloq xo‘jaligi fakultetini 24, muhandis-meliorator sohasi bo‘yicha 16 mutaxassis tamomladi.

Keyingi yillarda mutaxassislarga ehtiyoj oshib borishi tufayli muhandis-texnik xodimlar tayyorlash ko‘lami kengaydi. 1924-yil oxirida muhandis-melioratorlar fakultetida 49 professor-



o‘qituvchi, 13 texnik xodim 13 kafedrada faoliyat yuritdi va 274 talaba bilim oldi.

1930-yili O‘rta Osiyo davlat universiteti qishloq xo‘jaligi fakultetining mashinasozlik bo‘limi qayta tashkil etildi va qishloq xo‘jaligi instituti huzurida qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish fakulteti ochildi. 1931-yil aprelidan boshlab O‘rta Osiyo politexnika instituti (O‘OPTI)ning suv xo‘jaligi fakulteti ajralib chiqdi va O‘rta Osiyo suv xo‘jaligi muhandislari institutiga aylantirildi.

1934-yil 17-sentabrda oliyogohimizni tashkil etish haqida qaror chiqarildi va institutimiz tashkil topdi. Unda ikki tarmoq — qishloq va suv xo‘jaligi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoni boshlandi.

To‘rtinchidan, 1990-yillar boshigacha O‘zbekiston sobiq ittifoq tarkibida bo‘ldi. Bu nafaqat respublika, balki universitet hayoti va faoliyatida ham muayyan iz qoldirdi, albatta. O‘sha davrda miqyosi tobora kengayib borayotgan yangi yerlarni ochildish va cho‘llarni o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligi tizimi va suv xo‘jaligi ishlarida muhandislarga talabning mutasil oshishi bu sohada malakali kadrlar tayyorlashni o‘tkir zaruratga aylantirgan edi.



Institut har yili o‘qish mobaynida nafaqat O‘zbekiston, balki qardosh respublikalar, ba’zi chet davlatlar uchun ham zarur minglab mutaxassislar — chuqur bilimli qishloq xo‘jaligi texniklari va mexanizatorlari, suv xo‘jaligi va paxta ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish muhandislarini tayyorlagan.

Bu davrda yetishib chiqqan olimlar va malakali mutaxassislar mazkur tizimlarda samarali mehnat qilgan va ba’zilar hozir ham faoliyat yuritib kelmogda.

Beshinchidan, O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgach, mamlakat hayotida chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunday jiddiy yangilanishlar institutimiz hayotida ham keskin burilish, yangi davr shakllanishi uchun asos bo‘ldi.

Istiqlolning dastlabki yillari bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitidagi ba’zi qiyinchiliklarga qaramay, institut qishloq va suv xo‘jaligi bo‘yicha muhandis kadrlar tayyorlashda ko‘plab ijobiy natijalarga erishdi. Bu davrda institutning moddiy-texnik va o‘quv bazasi yanada mustahkamlandi, mutaxassislar tayyorlash uslublari o‘zlashtirildi, professor-o‘qituvchilar hamda talabalarning madaniy-maishiy sharoiti yaxshilandi.

Ushbu davrdagi institut faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 30-martdagi “Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi va 2004-yil 3-sentabrdagi “Respublika qishloq va suv xo‘jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlarini bajarish bilan uzviy bog‘liq.

Oltinchidan, keyingi yillar, ayniqsa, 2016-yildan universitet hayoti va faoliyatida yangi davr boshlandi.

Bu davr Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 8-maydagi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti negizida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tashkil etilishidan boshlandi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-dekabrda “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

yo‘nalishlarda ta’lim, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar transferini samarali yo‘lga qo‘yish talab etilmogda.

Bunday dolzarb global muammolarni yechish uchun investitsiyalar va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ilmiy salohiyatni yangi bosqichga ko‘tarish hamda ishlanmalarni amaliyotda qo‘llashga qodir muhandislarni tayyorlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bugun “TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti tarkibidagi 7 ta fakultetni o‘z ichiga oluvchi bosh kampus, Fundamental va amaliy fanlar ilmiy-tadqiqot, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish, Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutlari, Qozog‘istonning Olmaota shahridagi filiali hamda Toshkent viloyatida joylashgan o‘quv-ilmiy markazi bilan yuqorida sanab o‘tilgan an’anaviy va zamon talabi asosida yangi ochildgan ko‘plab yo‘nalishlarda keng qamrovli akademik dasturlarni (bakalavriat bosqichida 40 ta turi, magistratura bosqichida 36 ta, 21 ta doktorantura va 15 professional malaka oshirish dasturlari) taklif etadi.

So‘nggi ikki yilda universitet fakultet va kafedralari zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va ilmiy faoliyat yo‘nalishlariga moslashtirildi. Shuningdek, 3 ta yangi kafedra sun‘iy intellekt sohasida qishloq va suv xo‘jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt kafedrasini, transchegaraviy suv munosabatlari bo‘yicha yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun huquq kafedrasini, xorijiy filologiya (ingliz tili) bo‘yicha o‘qitish nazariyasi va metodikasi kafedralari tashkil etildi. UNESCOning suv diplomatiyasi, suv resurslarini boshqarish va atrof-muhitni



qo‘shma ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, AQSHning Kolorado universiteti bilan real vaqt rejimida AQSH va O‘zbekiston ta’limi uyg‘unlashgan “qo‘shma klass” loyihasi asosida mashg‘ulotlar o‘tilmogda.

2025/2026-o‘quv yilidan boshlab Italiyaning Bolonya va Vengriyaning Obuda universitetlari bilan “aqlli” qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, geoinformatika, innovatsion boshqaruv kabi yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturi joriy etish yuzasidan memorandumlar imzolandi.

Universitetning Olmaota shahridagi filialida 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab suv xo‘jaligi va melioratsiya, gidrotehnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Universitet joriy yilda 9 ta bakalavriat va magistratura dasturlarini Germaniyaning ASIIN xalqaro akkreditatsiya agentligi tomonidan 5 yil muddatga xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazdi. Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt kafedrasini olimlari tomonidan O‘zbekistonda birinchi bo‘lib inklyuziv ta’lim bo‘yicha raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt yordamida 2 ta dastur yaratildi.



muhofaza qilish kafedrasini fanlararo ta’lim va ilmiy tadqiqotlar platformasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ilmiy faoliyatni soha va tarmoqlar muammolari yechimiga yo‘naltirish maqsadida universitetdagi 11 ta kafedra qayta tashkil etildi.

Transformatsiya sharoitida dunyoning nufuzli universitetlari kafedralari bilan kafedralarimiz “juftligi” yaratildi. Ular hamkorlikda yangi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish, qo‘shma loyihalar tayyorlash, ilg‘or tadqiqotlar olib borish va natijalarni hammualliflikda chop etishni ta’minlamogda.

Jumladan, Niderlandiyaning Vageningen va AQSHning Michigan universitetlari bilan

So‘nggi ikki yilda universitetda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati 18 foiz oshdi. 2022-2024-yillarda universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘quv jarayonida foydalanish uchun 149 ta darslik va 214 ta o‘quv qo‘llanma yaratildi.

Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yo‘lga qo‘yish maqsadida universitetda qator xorijiy kompaniya va mahalliy ish beruvchi tashkilotlar homiyligida 16 ta maxsus auditoriya tashkil etilib, zarur texnik va laboratoriya vositalari bilan jihozlandi.

Barcha ish beruvchi korxonalarning bitiruvchi kurs talabalari uchun “Ish beruvchi stipendiyasi” ta’sis etildi. Bugun 100 dan ortiq talaba ushbu stipendiyani olmoqda.

Shuningdek, 23 ta mutaxassislik kafedrasining bir qator korxona va tashkilotlarda 25 ta filiali ochildi.

Universitet huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti ilmiy laboratoriyalariga Germaniya, Belgiya, AQSH, Latviya, Polsha, BAA, Xitoyda faoliyat yuritgan vatandosh olimlarning ishga kelishi tadqiqot samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqmogda.

BMT Taraqqiyot dasturining “Texnik salohiyatni mustahkamlash” loyihasi doirasida universitetning Toshkent viloyatida joylashgan o‘quv-tajriba xo‘jaligida talabalar amaliyot o‘tashi va yosh olimlarning ilmiy

tadqiqot ishlarini bajarishiga sharoit yaratish maqsadida 4,7 gektar maydonda “Zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar o‘quv-ilmiy poligoni” barpo etildi. Xitoyning “Huawei Tech Investment Tashkent” kompaniyasi homiyligida “Aqlli qishloq va suv xo‘jaligi” ko‘rgazmali zali tashkil qilindi.

O‘quv-ilmiy markazimizda Lindsay kompaniyasi (AQSH)ning Zimmatic yomg‘irlatib sug‘orish mashinasi ishga tushirildi. 2023-yilda Avstriyaning FELDER group kompaniyasi bilan hamkorlikda “Yog‘ochga ishlov berish innovatsion o‘quv markazi” ochildi. 2024-yilda mazkur kompaniya bilan hamkorlikda qurilish materiallari (yog‘ochsozlik) bo‘yicha hamkorlikda oliy malakali kadrlar tayyorlash hamda soha mutaxassislarini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Universitet mamlakatda va dunyoda xalqaro nufuz va o‘quv-ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish, faoliyat samaradorligini oshirish, ta’lim va ilmiy dasturlarining xalqaro miqyosdagi darajasini yuksaltirish orqali dunyo reytinglarida munosib o‘rin egallab kelmogda.

Jumladan, oliyogohimiz O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari milliy reytingida so‘nggi 3 yildan buyon peshqadamlik qilmoqda. Bugun dunyoning eng nufuzli xalqaro reytinglaridan bo‘lgan THE World University Rankings 2025 dunyo reytingida 601-o‘rin, Markaziy Osiyo va Kavkazorti mamlakatlar universitetlari bo‘yicha 2-o‘rin va O‘zbekistonda 1-o‘rinda turibdi. QS World University Rankings 2025 global dunyo reytingida 547-o‘rin, Markaziy Osiyo va Kavkazorti mamlakatlar universitetlari orasida 4-o‘rin va yurtimizda 1-o‘rinni egalladi.

Ochig‘i, bu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Umuman olganda, “TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti o‘quv, ilmiy, xalqaro hamkorlik faoliyati bo‘yicha dunyo universitetlarining yuqori qatoridan joy egalladi.

Jahondagi OTMlar orasida raqobat nihoyatda kuchli, zamon shiddat bilan rivojlanmogda. Mutaxassislarning mehnat bozoridagi o‘rni va mavqegini saqlab qolish oson bo‘lmaydi. Shu bois, bugun universitetimiz yuqori salohiyatli olimlari, mavjud resurslarini to‘liq safarbar qilib, jahon miqyosidagi birinchi toifali universitetlar darajasiga chiqmogda.

Mamlakatimizdagi sharoitdan foydalanib, turli sohalar, jumladan, oliy ta’lim, ilmiy tadqiqot, innovatsion va salohiyatni rivojlantirish yo‘nalishlarida izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning faoli ishtirokchisi sifatida o‘zining o‘rta va uzoq muddatli strategiyasi asosida ulkan mamlarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Ta’lim sifati va tadqiqot samaradorligini yanada oshirish orqali 2030-yilda dunyo universitetlari orasida ilg‘or 300 talik ro‘yxatga kirish, universitetimiz ta’lim xizmatini eksport qilish, mintaqaviy xabga aylantirish kabilar shular jumlasidan. Bular universitetimizni 2030-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha mo‘ljallangan strategik vazifalarning asosiy tamoyillaridir.

O‘z navbatida, bu universitet faoliyati yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan bog‘liq dolzarb vazifalarni bajarishda barchamizning faol va omilkor bo‘lishimiz zarurligi, zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklanganidan dalolat beradi.

6

2025-yil 9-aprel, 72-son

YANGI O‘ZBEKISTON

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilan harbiy ish sohasida ulkan o‘zgarishlar yuz bergan, ular Sharq-u G‘arb harbiy-nazariy tafakkuri taraqqiyotida katta rol o‘ynagan.

9-aprel — Amir Temur tavallud topgan kun

UZOQ SHARQQA MASH’AL BO‘LGAN “SHARQ YULDUZI” yoxud kapitan Kaydalovning quvonch va armonlari

“

Amir Temur bobomiz haqida Kaydalovning tilida chop etilgan o‘nlab kitoblarni unga sovg‘a qilmoqchi edim. Jumladan, “Temur tuzuklari”ni ham. Balki mukammal ruscha tarjima nashrini o‘zi ham izlab topgan chiqar, hozir bu qiyin emas. O‘sha paytda chamasi 35-37 yoshlarda edi, hozir omon bo‘lsa 70 dan oshib, qarilik gashtini surayotgan chiqar. Ehtimol, o‘zi ham yil sayin miqdori oshib borayotgan xorijlik sayyohlar safida O‘zbekistonga kelib, Amir Temurni ziyorat qilgan, “Temur tuzuklari”ni ilk bora qo‘lga olganidagi kabi hayajon bilan tilla koshinlarga mehr-la boqqan bo‘lsa, ne ajab.

”

Hakim YO‘LDOSHEV olgan surat.

“

Amir Temur bobomiz haqida Kaydalovning tilida chop etilgan o‘nlab kitoblarni unga sovg‘a qilmoqchi edim. Jumladan, “Temur tuzuklari”ni ham. Balki mukammal ruscha tarjima nashrini o‘zi ham izlab topgan chiqar, hozir bu qiyin emas. O‘sha paytda chamasi 35-37 yoshlarda edi, hozir omon bo‘lsa 70 dan oshib, qarilik gashtini surayotgan chiqar. Ehtimol, o‘zi ham yil sayin miqdori oshib borayotgan xorijlik sayyohlar safida O‘zbekistonga kelib, Amir Temurni ziyorat qilgan, “Temur tuzuklari”ni ilk bora qo‘lga olganidagi kabi hayajon bilan tilla koshinlarga mehr-la boqqan bo‘lsa, ne ajab.

”

Hakim YO‘LDOSHEV olgan surat.

Boshlanishi 1-betda

1991-yil arafasida katta serjant unvonini oldim. Bir kuni rota bo'yicha navbatchilik paytim tunda kitob o'qib o'tirsam, kazarmaga qism bo'yicha navbatchi bo'lgan kapitan Kaydalov nazorat uchun kelib qoldi. Kaydalov harbiy qism komandirining siyosiy-tarbiyaviy masalalar bo'yicha o'rinsosani edi. Nizomga ko'ra vaziyat haqida unga axborot berdim.

— O'qiyapsanmi? — dedi kapitan kitobga qo'l cho'zar ekan. — Qanday kitob bu?

— Badiiy asar, uydan jo'natishgan, — dedim O'tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” kitobini unga uzatar ekanman.

U kitob muqovasiga bir qur nazar tashladi, varaqlagan bo'ldi.

— Ko'p o'qiyasanmi?

— Ha, mutolaa qilib turaman.

Kaydalov indamay chiqib ketdi. Ertasi kuni meni kapitan chaqirayotganini aytishdi. “Navbatchilik paytim kitob o'qiganim uchun joylola kerak”, degan xayolda harbiy shtab joylashgan binoga yo'l oldim. Xonasiga kirib, harbiychasiga hisobot bermoqchi edim, qo'l uzatib ko'rishdi. Odatta zobitlar askarlar bilan bu tarzda so'rashmaydi. Ko'nglim bir ilqlik tuydi.

— O'tir, — dedi qarshisidan joy ko'rsatib. — Amir Temur haqida ham o'qiganmisan?

Har neni kutgan bo'lsam ham, bu savolni kutmagan edim. Nima deyiшимni bilmay, jim qoldim. U savolnini qaytardi:

— O'zbekistonda Amir Temur haqida ham kitoblar chop etilganmi? “Temur tuzuklari”ni o'qiganmisan? Uning sarkardalik faoliyatidan xabaring bormi?

Ochig'i, uning savollariga jo'yali javobim yo'q edi. Nima deyman, “Temur bobo katta mamlakatga asos solgan sarkarda bo'lgan. Shu sabab bizga Amir Temurni salbiy obraz sifatida ko'rsatishgan. Uning aslida kim ekanini, qanday katta shaxs bo'lganini biz, yoshlar ongiga singdirish “xalq dushmanlari”ni ko'paytirishga xizmat qiladi”, deymannmi? Axir bu o'z ixtiyoring bilan bo'yningga sirtmoq solish-ku! Vatanimizda oshkoralik davri boshlanib, o'zlikni tanish, tanitish ishlari avj olgan bo'lsa ham

hukmronlar tomonidan yomonotliq qilingan ajdodimiz haqida bilaman, o'qiganman deb yaxshi gap aytish... xatarli edi-da. Shu bois, imkon qadar umumiy javob berishga harakat qildim.

— O'zi maktabni o'tgan yili bitirdim. Bizga darslarda deyarli bu mavzuni o'qitishmagan. Ammo o'tgan yili “Sharq yulduzi” jurnali “Temur tuzuklari”ni e'lon qilgandi. O'zbekistonda bu nashrning nufuzi juda baland, taxminan yarim million adadda chop etiladi. Lekin asarni hali o'qib ulgurmagandim, — dedim.

— O'sha jurnalni uyingdagilardan so'rab ko'rasanmi? Agar yuborishsa, meni xursand

— Sarkardalar hayotiga juda qiziqaman. Ayniqsa, Amir Temur hayoti va faoliyati to'g'risida ko'p narsa bilgim keladi. Lekin manbalar kam, adabiyotlar yo'q. “Temur tuzuklari” Toshkentda chop etilayotgani haqida otamdan ba'zi gaplarni eshitgandim. Iltimos, o'shani menga topib ber, — dedi Kaydalov.

Shundan keyin kapitan men bilan do'stdek gaplashadigan bo'ldi. Ko'pincha navbatchilik kunlari tunda rotamizga kelar, birga choy ichib, o'qiyotgan kitoblarim haqida surishtirar, Amir Temur va Markaziy Osiyo tarixi mavzusida gaplashar edi. Uning iltimosiga ko'ra, “Sharq yulduzi” jurnalini jo'natishlarini so'rab, uyga

qilgan bo'larding.

— Ha, uyimda hamma sonlari bor, aytaman, jo'natishadi. Ammo u o'zbek tilida.

— Hechqisi yo'q, uni ruschaga tarjima qilasan, buning uchun senga hamma sharoitni yaratib beraman.

Xullas, shubhatimizdan yana shular ma'lum bo'ldiki, Kaydalovning otasi taniqli tarixchi-sharqshunos olim ekan. Kapitanning o'zi ham ilm bilan shug'ullanib, keyinchalik taqdir taqozosiga ko'ra harbiy sohani tanlabdi.

xat yozib yuborgandim. Maktub 10 kunlarda yetib borgan shekilli, yana shuncha vaqt o'tib, nomimga jo'natma (askarlar orziquib kutadigan “posilka”) keldi. Unda patir non, qand-qurs, o'zbekcha qo'shiqlar va ota-onam, singillarim ovozi yozilgan magnit tasma bilan birga Kaydalov kutgan jurnalning 1989-yil 8-soni ham bor edi.

— Barakalla, Mahmudov! Bugundan hamma narsadan ozodsan, — dedi kapitan ko'liga jurnalni tutqazganimda yosh boladek quvonib. — Qism komandiri buyrug'ini chiqartiraman, shtabda yordamchim bo'lasan. “Tuzuklar”ni tarjima qilasan.

Bu gap o'zimga ham yoqdi. Axir tashqarida harorat 40 daraja sovuq, shtab esa issiqqina, o'tirilib tarjimasini qilib beraman deb xayol qildim. Ammo ruschada ravon so'zlash bilan ruscha matn yozish boshqa-boshqa narsalar

ekanini o'sha paytgacha bilmasdim. Tarjima, boz ustiga, “Temur tuzuklari”dek murakkab matnни ruschaga o'g'irish men o'ylagandek oson ish emas ekan. Bu haqda kapitanga aytgandim, har bir jumlanı aynan emas, ma'nosini chiqarib bersang, men uchun kifoya, degan mazmunda javob qildi.

“Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimaiyoli, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda hukmdori to'xtamishxon, turk sultoni Boyazid Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lgani buyuk Sohıbqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o'ziga xos vasiyat, pand-nasihadlar va o'g'itlardan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari ning tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang qilish qoidalari, sipohiy lar maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari,

“Temur tuzuklari”da davlat boshqaruvining har bir sohasi va har qaysi mansab darajasi bo'yicha muayyan tuzuklar bitilgan. 27 mamlakatdan tarkib topgan buyuk saltanat asoschisi Sohıbqiron Amir Temur ibn Tarag'ay yirik davlat arbobi, mohir diplomat, ulug' sarkarda, ilm-u madaniyat homiysi, haq va adolatning jasoratli yalovbardori sifatida milliy davlatchilikda, huquq va siyosat sohasida o'zidan unutilmas va barhayot ta'limotlar, to'ra-tuzuklar qoldirgan.

amirlar, vazirlar va barcha mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo'sini va boshqalar xususida gap boradi”.

Taxminan shunday mazmunda kirish so'zi qildim. Hozir o'yab qolaman: o'shanda Kaydalov ishonchini oqlay olganmide yoki yo'q? Axir o'rta ma'lumot bilan hech qanday tajribaga ega bo'lmagan 20 yoshli yigitcha qay ahvolda tarjima qildim ekan? “Tuzuklar”ning mazmuni “tarjiman”da noto'g'ri o'zanga burilib ketmadimikan? Ikki oyga yaqin vaqt ichida asarning uchdan birini to'rg'a ruschada qoralab berdim. 200 sahifadan oshgan qo'lyozmamni o'qib, kapitan bir nimani tushundimikan? Hamon bu savollarning javobi yo'q. Shunisi aniq ediki, Kaydalovning Temur bobomizga mehri, qiziqishi har qanday mujmal matndan ham xazina izlashga, uni anglash sari harakat qilishga undar edi. Nazarimda, bu yo'ldagi barcha qiyinchilikka qaramay, u maqsadi — Amir Temur shaxsini o'rganishni juda-juda istardi.

1991-yil sentyabrning so'nggi kunlari harbiy xizmat muddati tugab, uyga qaytishga ruxsat tegdi. 5-10 kun ichida to'ra-xaltamni ko'tarishim kerak. Quvonchim ichimga sig'maydi. Biroq Kaydalov bundan xursand emasdi. Uniyan tushunaman. Axir tarjima hali oxiriga yetmagan edi-da. U noyob xazina — “Temur tuzuk”larini “boy berayotgan” edi. Ammo buning ham yechimi topildi. Bizdan olti oy keyin xizmatga kelgan olmalıqlik G'ayrat ismli askarnı kapitanga ro'para qildim.

— Tarjimani mana shu yigit davom ettiradi, — dedim. — Ruschani yaxshi biladi.

Kaydalovning yuzi yorishdi. Uning mehrlı ko'zidan bildimki, tarjimani G'ayrat davom

ettiradi. U ham men kabi Temur boboning mehr quyoshidan taft oladi, tashqaridagi izg'irindan, og'ir jismoniy mehnatdan ozod etiladi. Qiziq, bizdan necha asrlar oldin yashab o'tgan, yurtini obod, xalqni farovon qilgan ulug' shaxs taratgan nur zamonlar osha bız kabi avlodlar qalbini munavvar etaverar ekan-da!

Shunday xayollar bilan singillarim jo'natma bilan yuborgan, kuni kecha qo'limga yetib kelgan, kitob shaklida chop etilgan “Temur tuzuklari”ni uzatdim.

— Bu mendan sizga sovg'a, o'rtoq kapitan.

Millatning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, odamlarning yaxshi-yomoni bo'ladi. Kaydalov (hamon ismini bilmayman) yaxshi odam edi. Kitobni sal qolsa ko'ziga surtudek bo'lib qo'lga oldi.

— Rahmat senga, — dedi va meni akalarcha quchoqlab, bag'riga bosdi. — Juda katta ish qilding, Mahmudov. Otam ham xursand bo'ladi. “Sharq yulduzi”ni ham olib qolaman, toki bu kitob bilan jurnal men erisha olmagan ilm cho'qqilari yo'lini mash'al bo'lib yoritib tursin.

Harbiy qismni tark etadigan kun ham yetib keldi. Kapitan bilan xayrlashganimiz shundoq ko'z oldimda turibdi.

— Nafaqamga 4-5 yil qoldi, O'zbekistonga bormoqchiman. Amir Temur bilan bog'liq hamma narsa men uchun qiziqarli. Toshkentga

arab tarixchisi Ibn Arabshoh yozganidek, “Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli (kishi)larni, dovyurak va mardlarnı yoqtirar edi”. Binobarin, Sohıbqironning asosiy maqsadi alohida mulklarnı mustahkam va qudratli davlatga birlashtirishdan iborat bo'lgan.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilan harbiy ish sohasida ulkan o'zgarishlar yuz bergan, ular Sharq-u G'arb harbiy-nazariy tafakkuri taraqqiyotida katta rol o'ynagan.

“Temur tuzuklari”da davlat boshqaruvining har bir sohasi va har qaysi mansab darajasi bo'yicha muayyan tuzuklar bitilgan. 27 mamlakatdan tarkib topgan buyuk saltanat asoschisi Sohıbqiron Amir Temur ibn Tarag'ay yirik davlat arbobi, mohir diplomat, ulug' sarkarda, ilm-u madaniyat homiysi, haq va adolatning jasoratli yalovbardori sifatida milliy davlatchilikda, huquq va siyosat sohasida o'zidan unutilmas va barhayot ta'limotlar, to'ra-tuzuklar qoldirgan.

Saltanatida kasbu hunar va ma'rifat ahli muntazam ish bilan ta'minlagan. Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarlarga o'zini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilgan. Dehqonlar va rayiatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug'lik va mehnat qurollari tayyorlab berilgan.

“Amir Temur olimlarga xayrixoh munosabatda bo'lar va bilimi bilan halolligini ko'rgan olimlarga ishonar edi. U tarixchi va faylasuf lar, ilm-fan va ma'muriy sohada bilimdon kishilar bilan subhatlashish uchun ko'pincha taxtidan ham tushar edi. Amir Temur o'zidagi kishilarnı bo'ysundirish qobiliyatiga ularnı o'z hukmronligi ostida baxtiyor qilish iste'dodini ham qo'shgan edi”, deb yozadi Lui-Matyo Langle.

III

Mustaqillikning dastlabki yillaridan farqli o'laroq, hozir har qanday mehmonga ko'rsatishga arziydigan, ularning hayratiga sabab bo'ladigan jihlatlarimiz juda ko'p. Kapitan Kaydalov kelsa, Samarqand bilan Shahrisabzga, 1996-yil bunoyd etilib, ishga tushirilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga, yurtimizning qator go'shalarida buyuk bobomiz sharafiga tiklangan haykal va qadamjolar ziyoratiga, u bilan bog'liq manzillarga olib borishni o'zimizcha o'ylab qo'ygandim.

“Temur tuzuklari” qayta-qayta nashr etilayotgani, bugungi kunda uning qo'lyozma va toshbosma nusxalari dunyo bo'ylab keng tarqalgani, ushbu noyob asar parchalari jahonning ko'pgina mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotgani haqida gapirib bermoqchi edim. Shuningdek, bugun mamlakatimiz Temur bobomiz orzu qilgan jahonning yetuk siyosatchilari ishtirokidagi yirik mashvaratlarga mezb on bo'layotgan siyosiy makonga aylanganlarnı ko'z-ko'z qilardim. Samarqandga Amir Temur saltanatining poytaxti bo'lgan davrdagi kabi ulug'vorlik qaytgani, bugun u zamonaviy shaharga aylanganini ko'rsatardim.

Yana Amir Temur bobomiz haqida Kaydalovning tilida chop etilgan o'nlab kitoblarnı unga sovg'a qilmoqchi edim. Jumladan, “Temur tuzuklari”ni ham. Balki mukammal ruscha tarjima nashrini o'zi ham izlab topgan chiqar, hozir bu qiyin emas. O'sha paytda chamasi 35-37 yoshlarda edi, hozir omon bo'lsa 70 dan oshib, qarilik gashtini surayotgan chiqar. Ehtimol, o'zi ham yil sayin miqdori oshib borayotgan xorijlik sayyohlar safida O'zbekistonga kelib, Amir Temurnı ziyorat qilgan, “Temur tuzuklari”ni ilk bora qo'lga olganidagi kabi hayajon bilan tilla koshinlarga mehr-la boqqan bo'lsa, ne ajab.

Yana kim biladi...

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarılmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahıfalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-446. 36811 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov Musahhih: Asliddin Abdurazaqov Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 21:20 Topshirildi — 00:20

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05